

**Qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA**

“31” 01 2022-yil

349 -son

Nukus sh.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'riqlash boshqarmasi nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi M.Kaljanov (keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) birtomondan Qorao'zak Moliya bo'limi boshlig'i D.Pirniyazova (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur SHartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati, xarbiylashtirilgan va soqchilik quriqlashi kurinishida texnik qo'riqlash punktidan (keyingi o'rinlarda TQP deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. Umumiy shartlar

2. Buyurtmachi Qorao'zak tumani Qoraqalpogiston ko'chasi raqamsiz uyda joylashgan **Qorao'zak moliya bo'limi binosi 6 soat 2 ta dam olish kuni (shanba va yakshanba) bilan soat 00:00dan 06:00 gacha** o'rnatilgan tashvish tugmasi orqali TQPga ulangan holda (keyingi o'rinlarda ob'ekt dep yuritiladi) Ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.

3. Ob'ektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Ob'ektdagi kirish-chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Ob'ektni qo'riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi itlardan foydalanish mumkin.

7. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, ob'ektda 5 ishkuni ichida Milliy gvardiya xizmati qo'riqlash turi yo'lga qo'yiladi.

Ob'ektda soqchilik qo'riqlash turi va harbiylashtirilgan qo'riqlash ob'ektga — ish kuni ichida yo'lga qo'yiladi.

8. Buyurtmachi ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan talablarni bajarmaganda Ijrochi qo'yilmaydi, qo'yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. To'lovlarni amalga oshirish

9. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

TQP orqali qo'riqlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bir oyga 420547 so'm, 3 oyga 1261641 so'mni tashkil qiladi.

Xizmat ko'rsatish narxlari Moliya vazirligi va Milliy gvardiya tasdiqlangan tariflar asosida, hamda O'zbekiston Respublikasidagi minimal oylik miqdori bilan belgilanadi

10. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

11. Buyurtmachi mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab, 10 kun ichida mazkur Shartnoma bahosining 15 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma taqdim qilingandan so'ng Buyurtmachi besh kun ichida avans to'lovini chiqarib tashlagan holda oylik to'lovni amalga oshiradi.

Buyurtmachi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi bo'lsa, oylik to'lovning 100 foizi miqdorida avans to'lovini keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

12. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur SHartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

13. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur SHartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur SHartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararni undirish.

14. Buyurtmachining majburiyatlari:

mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 2022-yil «31» oktabr dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan ob'ektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (*ob'ektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, ob'ekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar*) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni ob'ekt hududining devor to'sig'idankamida 10 metruzoqlikda (ob'ekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, ob'ektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, ob'ekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 10 kun oldin ogohlantirish;

ob'ektda ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar ob'ektni tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Ob'ektni qo'riqlashga topshirganlik haqida TQPni xabardor qilib, 5 daqiqadan so'ng ob'ektning qo'riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish;

ob'ektni, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyasiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilish holatini

tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jihozlarning, boshqa yong'in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning ob'ektda qolishiga yo'l qo'ymaslik;

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish;

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan ob'ektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki ob'ektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar etkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va ob'ektga Ijrochi vakili etib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlash;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik;

Ijrochi vakillarini ob'ektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish;

15. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan ob'ektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish;

mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

16. Ijrochining majburiyatlari:

ob'ektda postlar dislokatsiyasiga (patrul yo'nalishiga) muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish;

mazkur SHartnomada va uning ilovalariga muvofiq ob'ektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

ob'ektda kirish-chiqish va ob'ekt ichki tartibiga rioya etish, ob'ekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

propusk rejimi mavjud bo'lgan ob'ektda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan ob'ektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalari bjarilishini ta'minlash;

ob'ektda yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in bo'limiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

ob'ektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va ob'ektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va ob'ektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va ob'ektni qayta topshirish bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda ob'ektdagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan

kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka etkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati navbatchi qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakili etib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. Tomonlarning javobgarligi

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur SHartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga etkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar etkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to'liq miqdorda qoplanadi.

21. Ijrochining aybi bilan etkazilgan zarar miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

22. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:

ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida etkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;

qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar etkazilganda;

buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar etkazilganda.

23. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

24. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

7-bob. Fors-major

25. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, engib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

26. Engib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, er qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur SHartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

27. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli

8-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'lari oluvchilari bilan tuzilganda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

29. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

30. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

ho'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha – Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari bo'yicha – belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yilning **31 dekabr** kuni oxirigacha.

Buyurtmachi ho'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga SHartnoma muddati tugashidan **30 kun** oldin ma'lum qilmasa, mazkur SHartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

31. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga etti kun oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida ob'ektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

32. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatda to'lama, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Ijrochi ketma-ket uch marta post va patrul yo'nalishlarida qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

34. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida **30 kun** oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

35. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

«Ijrochi»

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'riqlash
boshqarmasi

Yuridik manzili: Nukus shahri A Temur
kuchasi №129A

Bank ma'lumotlari: QR Markaziy bank
h/r: 21596000900577288001


MFO: 00015

STIR: 202674548

boshlig'i



M.I. Kaljanov



«Buyurtmachi»

Qorao'zak tumani Moliya bo'limi
Yuridik manzili: Qorao'zak tumani
Qoraqalpog'iston kuchasi r/u

Bank ma'lumotlari:

h/r: 23402000300100001010

L/S 100022860352117011312092005

MFO: 00014

STIR: 200402783

boshlig'i



D. Pirniyazova

« ТАСДИКЛАЙМАН »
Узбекистон Республикаси Миллий гвардияси
Коракалпоғистон Республикаси Куриқлаш
бошқармаси бошлиғи



М.И.Калжанов

« 01 » 2022 йил

« КЕЛИШАМАН »
Кораузак Молия булими
бошлиғи



Д.Пирниязова

« 31 » 01 2022 йил

СМЕТА- ХИСОБИ

2022-йил 01-Январь кунидан хисобланади

№	Куриқлаш тури	Постлар сони	Куриқлаш вақти	Бир ойлик куриқлаш вақти	Куриқлашнинг пост-соати нархи	Куриқлаш учун 1 ойлик харажатлар хисоби
1	2	3	4	5	6	7
1	Кораузак Молия булими ташвиш тугмачаси	1	6 соат 00-00 дан 06-00 гача, 2 дам олиш куни билан (шанба-якшанба)	125	3128	391 000,00
Урнатилган куриқлаш ташвишгох воситалари (хизмат курсатиш 1 ойга 29547 сум)						29 547,00
Жами:						420 547,00 сум

Куриқлаш бошқармаси МИБ бошлиғи

А.Аяпбергенов

"Келишилган"

Бош хисобчи

Yuridikalıq áhmiyetke iye hújjetlerdiń nızam hújjetlerine muwapıqlıǵı haqqındaǵı huquqıy

JUWMAQ

№ _____

1. Joybardıń túri. Shártama
2. Joybardıń atı.

Shártnama Qaraózek rayonı Qarjı bólimi hámde O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘riqlash boshqarmasi menen dúzilgen shártnaması joybarı haqqında.

3. Joybar islep shıǵarıwshı hám kirgizilgen sánet haqqında maǵlıwmat.

Qaraózek rayonı Qarjı bólimi tárepinen islep shıǵılǵan hám orayǵa huquqıy ekspertizadan ótkeriw ushın 31.01.2021jılda kirgizilgen.

Joybar ámeldegi nızam hújjetlerine muwapıq islep shıǵılǵan hám onı qabıl qılıw maqsetke muwapıq.

Oraydıń Bas yuriskonsultı:



A.Kaliev

2021-jil 31- yanvar